

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**BERDAQ NOMIDAGI QORAQALPOQ DAVLAT
UNIVERSITETI**

FILOLOGIYA fakulteti

O'ZBEK FILOLOGIYASI kafedrası

KURS ISHI

MAVZU: Cho'lponning obraz yaratish mahorati

Bajargan:

Abdullayeva Zubayda

Qabul qilgan:

Duyserboyev Olim

Nukus – 2013 y

Cho'lponning obraz yaratish mahorati

Reja:

I.Kirish.

II.Asosiy qism:

a) Lirik asarlaridagi qahramonlar tasviri.

b)Cho'lponning nasriy asarlarida obraz yaratish mahorati.

d) Dramatik asarlarining obrazlar tasviri

III.Xulosa.

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon o'zbek adabiyotining realistik yo'nalish kasb etib, taraqqiyot sari olg'a siljishini ta'minlagan talantli ijodkorlardan biridir. U murakkab bir davrda yashashiga qaramay, badiiy ijodining juda ko'p janrlarida o'z qalamini sinab ko'rdi va o'zining iqtidorli so'z ustasi ekanligini ko'rsatdi. Uning haqiqiy nafosat ruhi bilan yo'g'rilgan samimiy lirik she'rlari, davr ijtimoiy hayoti bilan chambarchas bog'liq publisistika, xalqona ruh ufurib turgan dramasi, davrning ijtimoiy-mashiy masalalari aks topgan prozasi zamon adabiyotining dolzarb masalalariga munosabat tarzida taassurot qoldiruvchi adabiy-tanqidiy maqolalari ijodkor dahosining g'oyat yuksakligidan dalolat beradi.

Cho'lpon mamlakatimizda XX asr boshlarida ro'y bergan ijtimoiy va madaniy islohotlarning barchasida faol ishtirok etdi. O'lkamizda teatr san'ati, maorif va madaniyat ishlari, matbuot sohasining shakllanishi va takomilida Cho'lponning o'rni alohida ta'kidga loyiqdir. Haqiqiy xalqparvar va o'z yurti, Vatanining sodiq farzandi Cho'lpon ham sho'rolar hukumati uyushtirgan mal'un qatag'onning birinchi qurbonlaridan bo'ldi. Chunki uning asarlarida ilgari surilgan xalqchil g'oyalar, ozodlik va erk haqida orzu-o'ylar sho'rolarning totalitar tuzumiga butunlay teskari edi...

Shuning uchun ham Cho'lpon jisman yo'q qilingandan so'ng ham ancha yillargacha uning nomi tilga olinmadi. Mavjud kitoblari kutubxonalardan yig'ib olinib, yo'q qilindi. Ularning maqsadi ushbu xalqparvar ijodkorni xalq xotirasidan butunlay o'chirib tashlash edi.

1956-yilda bolsheviklar partiyasining XX syezdi tomonidan Stalin shaxsiga sig'inish masalasi ko'rib chiqilib, uning nomi qoralangach, o'ttizinchi va undan keyingi yillarda qatag'on bo'lganlarning, jumladan Cho'lpon va uning taqdiridoshlarining ham nomlari oqlandi. Abadiy me'rosini o'rganish va chop qilishga yo'l ochildi.

Biroq yurtimiz istiqloli uchun jon fido qilgan ijodkorlar hayoti va ijodiga qiziqish faqat O'zbekiston Respublikasining mustaqilligidan keyingina boshlandi. Ayniqsa, 1997-yil buyuk ijodkorning yuz yillik yubileyi munosabati bilan Cho'lpon hayoti va ijodi haqida monografik asosda risola va kitoblar chop

etildi. Adabiy me'rosi xalq orasida keng targ'ib qilindi. Cho'lpon ijodi juda serqirra va keng ko'lamlidir.

Cho'lponning lirik me'rosi "Uyg'onish", "Buloqlar", "Tong sirlari", "Soz" kabi to'plamlari "O'zbek yosh shoirlari" nomli majmuasida bosilib chiqqan. Bundan tashqari shoirning ko'pgina she'rlari vaqtli matbuot nashrlarida e'lon qilinib borilgan. Afsuski, Cho'lpon hibsga olinganda uydin qo'lyozmalar olib ketilgan va bu asarlarning taqdiri hanuzgacha noma'lum bo'lib qolmoqda. Shuningdek Cho'lpon qamalish arafasida "Jo'r" degan she'riy to'plam chiqarish niyatida bo'lgan. U ushbu kitobni nashriyotga berib qo'ygan. Cho'lpon qamoqqa olingach ushbu kitob ham nashriyotdan qo'lyozma holiday maxsus tashkilot vakillari tomonidan olib ketildi va bu kitob taqdiri ham bugungi kunimizgacha noma'lum bo'lib qolmoqda. Shoirning nomi to'la oqlanib, ijodiy me'rosi o'rganila boshlagach uning "Sog'inish" va "Yana oldim sozimni" to'plamlari bosilib chiqdi. Ushbu to'plamlarda bizga ma'lum bo'lgan barcha she'rlari jamlangan. Cho'lponning ijodiy me'rosini izlash davom qilayotgan jarayondir...

Hech bir ijodkor, hatto eng buyuk iqtidor egasi ham o'zini voyaga yetkazgan xalq madaniyatidan uzoqda, undan ajralgan holda bo'lolmaydi. Tabiiyki, Cho'lpon she'riyati ham quruq joydan yuzaga kelgan emas. Ming yillar davomida taraqqiy qilib kelgan xalq og'zaki ijodi va mumtoz adabiyotimiz Cho'lpon she'riyatiga asos bo'lib xizmat qildi. Cho'lpon ijodi haqida gapirganda mana shu ikki asosni doimo nazardan qochirmasligimiz kerak, aks holda ushbu she'riyat haqida haqqoniy xulosalar chiqarishimiz mushkul bo'ladi. Sababi biz aniq bir asarni shartli ravishda "tekst" deb oladigan bo'lsak, uning mohiyatini ochish uchun uni "kontekst" da ko'rib chiqishimiz kerak. She'riy asarning "konteksti" deganda esa, uning yaratilish jarayoni, shoirlarga asarni yozish uchun turtki bo'lgan ijtimoiy ruhiy omillar nazarda tutilishi lozim.

Cho'lponning durdona asarlaridan "Go'zal" she'rini mana shu nuqtai nazardan qarasak, ushbu mulohazalar oydinlashadi. Ushbu asar 1919 yilda fevral oyida yozilgan bo'lib, "Ishtirokiyun" gazetasining shu yilgi 72 sonida e'lon qilingan. Keyinroq "O'zbek yosh shoirlari" to'plamiga kiritilgan. Shoirning lirik qahramoni ko'ngliga sof, yuksak muhabbatni jo qilgan insondir. U seva olgani uchunoq buyuk bir baxtni his qiladi. Uning

qalbini zabt etgan malaksiymoning tengi yo'q ,ma'shuqa oddiy kishilar uchun buyuklik tajassum oy va quyoshdan ham go'zal.Ko'ramizki,lirik qahramon obrazini yaratishda ham,mashuqa timsolida ham Cho'lpon mumtoz adabiyotimizdan oziqlanayotganligi seziladi.Zero,bu xil mubolag'alar – yorni hamma narsadan ustun qo'yish,mumtoz adabiyotimizga xos bir xol edi.Yana bir narsaga diqqat qaratishimiz kerakki, mumtoz adabiyotda ,ayniqsa tasavvuf she'riyatida oshiq va ma'shuq obrazlari ko'pincha ramziy ma'noda qo'llaniladi.Xo'sh ushbu she'rda ramziylik bormi degan haqli savol tug'iladi bizningcha shunday ma'no mavjud.She'ning ichki zaminida boshqa ma'nolar ham yashiringanday ko'rinadi.

“Go'zal” da tasvirlanayotgan narsa - lirik qahramonning ,hislari to'lib – toshgan oshiqning yor bilan hayoliy muloqoti, u haqdagi o'ylari o'quvchining sirtqi ma'noni o'ylashi uchun kifoyadir.Biroq she'ning ichki botiniy ma'nosini lirik qahramonni yaxshi his qilgan she'rxongina anglab yetadi.

Cho'lpon she'rni 1919 - yilda Boshqirdistondan qaytib kelgach-millatning ozodlik va erki haqidagi orzu-umidlari ipi butunlay uzilgan bir davrda yozdi.U o'sha davrda sho'ro matbuotida xizmat qilar,xalqning ijtimoiy ahvolidan yaxshi xabardor edi.Rossiyaning musulmonlar o'lkasiga sayohat Cho'lponning milliy itiqloq haqida orzularini chil-parchin qiladi.Shulardan kelib chiqib,”Go'zal” da aks ettirilayotgan “Oydanda ,kundanda ” yuqori qo'yilayotgan ma'shuqa milliy ozodlik ramzi bo'lishi mumkin.Ushbu fikrga kelish uchun Cho'lponning butun umrini milliy ozodlik yo'liga tikkan vatanparvar shaxs deb to'xtamga kelish kerak.Chunki har bir ijodkor o'zining yirik ideallarini faqat bir asardagina aks ettirib qolmaydi.

Shoirning 1922 yilda yozilgan “Aldanish ” nomli she'ri ham bir qarashda tengi yo'q go'zal ma'shuqaga aldanib qolgan lirik qahramonning ohu-nolaga to'la tuyg'ulari singari taassurot qoldiradi.Cho'lpon o'sha she'rida:

Besh yillik yonishim bir yil uchunmi?

Erkalab o'tguvchi bir yel uchunmi?

Degan savollarni o'rta tashlaydi.U sevgisining xomxayol bo'lganiga ishongisi kelmaydi:

Qo'limni tegizdim... odam edi-ku,

Ko'zimda o'ynagan bir nur edi-ku,
Sevgimda sog',tetik bardam edi-ku,
Bo'ynimga qo'l solgan bir xur edi-ku.

E'tibor beraylik-lirik qahramon muhabbatini bag'ishlagan nadir? U "odam","bo'yniga qo'l solgan hur" edi.Cho'lpon lirik qahramoni bekorga "besh yillik yonishlar"ni eslayotgani yo'q.Oshiqqa bundan besh yil oldin 1917 yilda o'z ma'shuqasiga-milliy ozodlikka qo'l tekkizsa bo'ladigan darajada real ko'ringan.Ko'ramizki,ushbu she'r mazmunida ham ichki va tashqi ma'no mavjud bo'lib,shoir lirik qahramoni sevimli ma'shuqasidan ayrilgan,ma'shuqa iztiroblari orqali milliy istiqlolga yetishish umidining puchga chiqqanligi natijasida paydo bo'lgan iztirob-u alamlarni ifodalaydi.

Cho'lponning "Men ham sevaman" nomli she'ri xuddi yuqoridagi she'rga javobdek yangraydi.Endi "Go'zal "she'ridagi quyidagi misralarni eslaylik:

Qorong'u kechada ko'kka ko'z tikib,
Eng yorug' yulduzdan seni so'rayman...

Ko'zga yoqqol tashlanib turibdiki,har ikkala she'ring dastlabki misralari hisoblangan yuqoridagi parchalarda mazmunning bog'liqligi mavjud.Ya'ni shoir "Go'zal" yozilgan paytlarni o'kinch bilan,sog'inch bilan eslaydi.Chunki u vaqtlarda ma'shuqasiga,ya'ni istiqlolga erishish uchun imkoniyatlari bordek tuyuladi.Endi unga erishish mumkinchiligi umuman yo'qligini tamoman tan olishga majbur bo'layotgan lirik qahramon izrtirobli tuyg'ularni to'kib soladi.Uning yuragidagi ushbu orzu armon yarasi bo'lib bir umrga qoladi.Biroq hayot davom etayapti ekan lirik qahramon ham yashashi,muhabbatini kimgadir bag'shida etishi zarur:

Endi har nafasda yana kuyamen,
Faqat majnun bo'lib elni suyamen.

Misralari orqali o'zini ovutadi lirik qahramonimiz.

Demak,Cho'lpon o'z she'rida mumtoz adabiyotining mubolag'a,istiora va boshqa tasvir vositalaridan foydalanibgina qolmay,ramziy obrazlar orqali g'oyaviy maqsadlarga intilish kabi tasavvuf adabiyotiga xos xususiyatlarni ham o'zida

o'zlashtirgan.Cho'lponning nega bunday yo'l tutganligining sababi esa hammaga ayon...Ya'ni mavjud qatag'on va senzuraning ko'zini shamg'alat qilish uchun shunday usul qo'llagan deyishimiz mumkin.

Cho'lpon lirikasining eng sara namunalaridan biri "Buzulgan o'lkaga" she'ri tahlili ham shoir ijodining,uning lirik qahramonining yangi qirralarini ochadi.Mazkur she'r shoirning boshiga qaro kunlar tushganda unga aybnoma sifatida qo'yilgan millatchilik ruhidagi asardir.Bu she'rda shoirning Ona vatan – Turkistonga bo'lgan cheksiz muhabbati,uni ozod ko'rish yo'lidagi yengib bo'lmas istagi yaqqol ko'zga tashlanib turar edi.Asar Sibirdan Afg'onistonga qadar,Xitoydan kavkazgacha cho'zilib yiotgan bepoyon Turkistonning takrorlanmas manzarasining o'ziga xos ifodasi bilan boshlanadi.Lekin bu ifodaning o'ziga xosligi,u orqali lirik qahramon kayfiyatining tushkun holatiga diqqat qaratishimiz mumkin.Turon o'lkasining ko'klarga salom bertadigan yuksak tog'lari,jannar buloqlari kabi pokiza suv oqadigan chashmalari notinch.O'lkaning boshiga quyuq bulut ko'lanka solgan.Top-toza suvlar oquvchi chashmalarning jildirashlari lirik qahramonga yig'i singari eshitiladi.Lirik qahramon mustamlaka iskanjasida ezilgan o'lka Turkistonning tabiatini shu tariqa juda ayanchli tarzda ifodalaydi.

Lirik qahramon ruhini g'am-qayg'u egallagan,negaki o'lka bulut ko'lankasida – zulm ostida.O'lkaning suvlarijildirab oqmaydi,balki bosqinchilardan qo'rqib ingraydi."Yov bormi deb to'rt tarafni tinglaydi".Musaffo buloqlar qo'noqlarning kelib qolishidan cho'chiydilar,o'tloqlar toptalgan,ularda yoyilib yuradigan poda-yu yilqilar uyuri parokanda bo'lgan, podachilar dorga osilgan."Ot kishnash,qo'y ma'rashi o'rniga-oh yig'i" eshitiladi."Go'zal qizlar yosh kelinlar"ko'rinmaydi:

Ot minganda qushlar kabi uchuvchi,
Erkin-erkin havolarni quchuvchi,
Ot chopganda uchr qushni tutguvchi,
Uchar qushday yosh yigitlar qayerda.
Tog' egasi –sor burgutlar qayerda.

Mana shunday ezgin holat shoir lirik qahramonini qiynoqqa soladi.Uning iztiroblari qalb tug'yonlari kitobxonlarga o'tadi.Ularda o'z o'lkalarti vatanlari taqdiriga

taqdirdoshlik tuyg'usi tarbiyalanadi. Ularning ko'z oldilarida munis turkistonliklarning mayin va beozor turmush tarzi, hamisha ozodlikka tinchlikka tashna bo'lgan yurtdoshlarimizning shonli o'tmishi yorqin namoyon bo'ladi.

She'ning ikkinchi qismida shoirning mayin tabiatli Turkiston ta'sirida ham, lirik qahramonning his-tuyg'ulari ifodalangan o'rinlarda ham biroz taranglashish seziladi. Lirik qahramon ko'zidan nafrat olovi, tilidagi kesatiq va kinoyalar, yurtdoshlarni faoliyatga undovchi chaqiriq toboro kuchayib boradi.

Shoirning lirik qahramoni o'lkaga yurtdoshlariga ma'lum darajada shavqatsiz. Chunki u shunday zo'r o'lkaning, shunday xalqning xor-zorlikka ko'nikib, kelgindi bosqinchilarga "qalin tovushda ket" demagani tanlarida qamchilarning kulishi turmushida umidlarning o'lishi shoir lirik qahramonining noroziligiga sababdir. Shu bois she'ning oxirlarida o'lkaga shunday murojaat qiladi:

Kel men senga qisdqagina doston o'qiy,

Qulog'ingga o'tganlardan ertak to'qiy.

Kel, ko'zingning yoshlarini so'rib olay,

Kel, yarali tanglaringni ko'rib olay, to'yib olay.

Lirik qahramon doston va ertakni o'qib o'tirmaydi. Xo'sh u nima bo'lishi mumkin. Albatta, o'lka xalqlarining shonli tarixi, bu xalqlarning butun dunyo ilmu-faniga yetkazib bergan daholari haqida yovlarga tiz cho'kmasdan vatan uchun jon fido qilgan qahramonlar haqida emasmikin bu ertak dostonlar degimiz keladi.

"Buzilgan o'lkaga" she'ri biroz umidbag'shday tuyiladigan shu bilan birga chaqiriq yangraydigan misralari bilan tugallanadi:

Ey har turli qulliklarni sig'dirmagan hur o'lka

Nega sening bo'g'zingni bo'g'ib yotar ko'lanka.

She'ning oxirgi so'zi "ko'lanka" ga diqqat qarataylik. Bu o'rinda bosqinchi yov ko'lankaga o'xshatilayapti. Demak lirik qahramon nazdida o'lka va yurtdosh shoirlarning qo'zg'alishiga ko'lanka misol, ya'ni hech narsaga arzimaydigan dushman iskanjasidan qutilish unchalik qiyin emas.

Cho'lponning "O'zbekim " nomli she'ri ma'lum sabablarga ko'ra,o'z vaqtida e'lon qilinmagan bo'lsa ham ,uning to'la matni zamondoshlari xotiralari orqali bizgacha yetib kelgan.She'ning ilk misralaridayoq shoirning alamli kinoyasi ko'zga tashlanadi:

So'lqillab kelasan o'zbekim,

Ma'rifat otiga o'tlanib.

Bir miri topgan boladay

Og'zingni irjaytib...suyunib!

Bu misralarda yuz berayotgan hodisalar mohiyatini anglashdan ojiz,yuzdagi o'zgarishlarning o'zidanoq quvonchi ichiga sig'may yurganlar holiga acjhinish va achchiq istehzo mavjuddir shoirning bu holatini bir mirilik chaqa topgan bola holiga o'xshatish,"irjaytib" so'zidagi salbiy bo'yog'i ko'p nuqtadan so'ng ayricha ma'noni ohang kasb etayotgan "suyunib" so'zining ishlatilishi shundan dalolat beradi.Bolalarcha quvonib millatdoshlarini Cho'lpon hayolidan kechagi hurriyat bo'lgan kunlarga qaytaradi.

Cho'lpon lirik qahramoni ko'ngil mulkidagi erkinsizligini dahlsiz qoldirishga intilib,bu erkinlikni bo'g'ishga qaratilgan har qanday tajovuzkorlarga qarshi kurashgan holda namoyon bo'ladi.Uning umidlari 1922 yil avgustida yana bir bor kuchli zarbaga uchraganida yaratilgan "Ko'ngil " she'ri ham fikrimizni dalillay oladi.Cho'lponning bu mashhur she'ri:

Ko'ngil sen bunchalar nega

Kishanlar birla do'stlashding?

Na faryoding na doding bor,

Nechun sen buncha sustlashding?-

Degan dardli xitobdan boshlanadi.Shoir "Ko'ngil" va "kishan" timsollarini yonma-yon keltirar ekan,ularning mutlaqo zidligini ko'rsatishga intiladi.Zero,bu timsollar ifodalayotgan erkinlik va qullik tushunchalarining o'zi bir-biriga tamoman zid.Biri bir joyda ikkinchisi o'limga mahkum.Nega endi shoir lirik qahramoni ko'ngilning sustlashganidan noliydi.Chunki,Cho'lpon uchun ko'ngil erkinligini ta'minlashning o'zigina tugal maqsad bo'la olmaydi.Ko'ngil olamini tashqi dunyodan butkul ayroq

holda tasavvur qila olamaydi. Shu xil e'toqod sohibi bo'lgan lirik qahramon she'ning ikkinchi bandida tashqi dunyodagi ko'ngilsiz hollarga munosabat bildiradi:

Haqorat dilni og'ritmas,
Tubanlik mangu ketmasmi?

Lirik qahramonning iymoni komilki, haqorat va tubanliklarga ko'nikish befarqlik ko'nglini o'diradi. Tashqi dunyodagi bu xil holatlarda nisbatan isyon qilmagan ko'ngil oxir-oqibat erkinlikdan ayriladi-o'ladi. She'r nihoyasida dillarni titratuvchi o'tli xitobini ham shu yo'sinda tushungimiz keladi:

Tiriksan, o'lmagansan,
Sen-da odam, sen-da insonsan
Kishan kiyma, bo'yin egma,
Ki sen ham hur tug'ulg'onsan!...

Shoirning e'tiroficha inson yorug' dunyoga erkin yashash huquqi bilan keladi, shunday ekan uning erkini bo'g'ishiga hech kim haqli emas.

Yuqoridagi mulohazalarimizni Cho'lponning "Kishan" nomli she'ri ham tasdiqlaydi.. She'ning lirik qahramoni kishanga jonli mavjudoddek murojaat etar ekan, kitobxon tasavvurida kishan asta-sekin zulm timsoli bo'lmish afsonaviy devga aylana boradil. Bu zulm timsolining mahkam tutuvchi "temir barmoqlari" "manhus va qizg'onmas quchog'i, doimo sergaklaigidan yuvilmas ko'zlari bor". Har qanday zulumga cheksiz nafrat bilan qarovchi she'ning lirik qahramoni ozodlik umidi bilan yashaydi:

Qilich bilan sening erkingda ko'p yillar qolib ketdim,
Faqat har tebranishdan qutulishlikni umid etdim.

Ko'ramizki, kishan zanjirlarining har bir tebranishi uning tanasiga og'riq beribgina qolmay, ayni paytda ko'nglida isyon ham qo'zg'olodi. Kishandan qutulish umidi kuchayadi. Ya'ni she'ning lirik qahramoni-jismi kishanband etilgan holda ruhi ozod kishi Cho'lponning idealiga mos insondir.

Xullas, Cho'lpon she'riyatining lirik qahramoni o'zining davrining eng muhim masalalari xususida qayg'iruvchi o'z taqdirini millati taqdiri bilan vatani taqdiri bilan bir xis qiluvchi shaxs sifatida sezadi. Cho'lpon she'riyatidagi eng muhim qirralar ham xuddi mana shu xususiyatlardadir.

Cho'lponning nasriy asarlarida obraz yaratish mahorati

Cho'lpon nasriy asarlarida ham qahramonlar yaratdi. Uning dastlabki asarlari ya'ni hikoyalardan biri **“Do'xtur Muhammadyor”** hikoyasi shu jihatdan ayniqsa e'tiborga loyiqdir.

Hoji sartarosh oilasida tug'ilgan yagona farzand o'n yoshga yetganida, Ufadagi “Madrasai oliya” ni tugatgan bir muallim kelib qoladi. U gazeta o'qiydigan va “yetmish ikki tilni biladigan” Hoji sartaroshning shuhratini eshitib, u bilan tanishishni ixtiyor etadi. Muallim sartaroshxonaga kelganda, Muhammadyor ham otasining qoshida edi. Hoji Ahmad gap orasida o'zining yolg'iz o'g'li haqida so'z ochib, uni o'qitishni muallimdan so'raydi. Bir yil mobaynida muallim Muhammadyorga ahkomi islom, tarix va jo'g'rofiyadan mukammal bilim beradi. Ota-bola muallim afandini poyezdga chiqarib, vokzaldan qaytayotganlarida, qimorbozlik orqasida bir-birlariga musht ko'targan bezorilarga duch keladilar. Hoji ularga pand-nasihat qilmoqchi bo'lganda, qimorbozlardan biri bo'g'ib o'ldiradi. O'layotgan ota o'g'liga vasiyat qiladi.

“Do'xtur Muhammadyor” ana shunday fojiali tugun bilan boshlanadi. Cho'lpon yaxshi kishilar ko'magida ota vasiyatiga amal qolib, dastlab Bokuda, so'ng Peterburg va Shvetsariya dorilfununlarida o'qib, mashhur doktor, yozuvchi va noshir bo'lib yetishgan Muhammadyor siymosida Hamzaning “Yangi saodat” qissasidagi Olimjon bilan qondosh bo'lgan ideal obrazini yaratdi. Bu qahramon jaholatga qarshi kurashda ilm-fanni birdan-bir qudratli qurol deb biladi, shu qurol yordami bilan xalqning sihat-salomatligi uchun kurashadi hamda uning o'zi singari baxtli jamiyat uchun foydali kishilarni yetkazishga ishonadi.

Cho'lpon 1936 yil **“Kecha kunduz”** romanining birinchi qismini ya'ni kecha qismini e'lon qildi. Asarda tasvir etilgan voqea birinchi jahon urushi endigina boshlangan kezlarda O'zbekistondagi viloyatlarning birida bo'lib o'tadi.

Asarda tasvirlangan voqealardan kelib chiquvchi xulosa shuki, Zebi yashagan davrni tag-tomiri bilan o'zgartirish kerak. XX asrning 10-yillaridagi o'zbek xalqi hayoti, asarda tasvirlangannidek, murakkab edi. Uning murakkabligi, avvalo shundaki, Zebi, uning onasi Qurvonbibi, xatto otasi Razzoq so'fi singari oddiy xalq vakillari Eshon bobolar, Akbarali mingboshilar, noyib to'ralarning qo'lida o'yinchoq edi; jamiyat bu kishilarni istagan

ko'yiga solishi,hatto ermak uchun,boshqalarga ibrat bo'lsin uchun mahv etib tashlasdhi ham hech gap emas edi.Xalq hayoti murakkabligining yana bir jihati shundaki,hatto ularni mahv etuvchi kuchlar-Akbarali mingboshilar,noyib to'ralarning kuni ham bitib qolgan,lekin shunga qaramay ,jamiyatning keyingi taqdirini o'z qo'liga oluvchi kuch hali tug'ilib,shakllanib ulgurmagan edi. Shuning uchun ham Cho'lpon romanining mazkur voqealar tasvirlangan birinchi kitobini "Kecha" deb nomlagan.Yozuvchi romanda bir-biriga o'xshamagan obrazlar tizimini yaratadi.

Yozuvchi adib Abdulhamid Cho'lpon o'zining "Kecha va kunduz" romanining bosh qahramonlari qilib,real kishilarni qo'yarkan,xilma-xil xarakterlar to'qnashuvida tasvir vositalaridan unumli foydalanadi."Ma'lumki,adabiy tip davr hodisasi,ayni chog'da,xarakter hamdir.Inson xarakterining nutqida,so'zlash tarzida yaqqol aks etadi.

A.Cho'lpon "Kecha va kunduz" romanida tipiklashgan zakunchi va domla (qozi) obrazi va o'sha soddagina zamon muhitiga mos o'zbek ayoli Zebi obrazining ruhiy holatlarini shundaygina ko'rsatib qolmay,balki dialoglar vositasida suhbatli tortishuvlarda ularning qalbini kitobxonga yaqqol ochib ko'rsatadi.Romanning bosh qahramoni Zebi endigina o'n besh bahorni qarshilagan,o'zbek tabiatining binafsha singari beozor,hammaning ko'zi va dilini quvontiradigan bu chechagi Razzoq so'fidek badfe'l,qo'rs va johil kishining xonadonida ochilgan.Agar Zebi boshqa muhitga,insonning,farzandning qadri bor oilada tug'ilganida,u bu qadar ayanchli qismatni boshidan kechirmagan bo'lardi.Cho'lpon talqinidagi bahor-bu faqat tabiat fasli emas;u Zebi kabi ruhan yosh,go'zal va soda kishilar.Salti ham, boshqa dugonalari ham,O'lmasjon ham-shu bahorning inson shaklidagi ko'rinishlari.Bu bahoriy muhitdan binafsha kabi uzilib,kuzgi shudgorga o'tqazilgan-Akbarali mingboshiga uzatilgan Zebining halokatga uchrashi tabiiy edi.Yozuvchi Zebi hayotining bu unutilmas lahzasini bejiz mufassal tasvirlamagan.Agar Zebi asar davomida butun birn inson umrin yashagan bo'lsa,bu lahza shu umrning eng totli daqiqalaridan biri va ehtimol birinchisi bo'lib qoldi.

Chindan ham,Zebining qishloq safari tufayli tez rivojlanib ketgan fojeali taqdiri dahshatli voqealar bilan to'la.Birinchidan,u otasi teng kishiga uch xotinli mingboshiga turmushga chiqishga majbur bo'ladi;ikkinchidan,shu badbashara eri ham unga qarab otilgan o'qdan o'lib,Zebi o'n besh yoshida beva qoladi;uchinchidan, u erining qotili

sifatida tuhmatga qoolib yetti yilga Sibirga surgun qilinadi.Uning ko'rgiligi bu mudhish falokatlar bilan ham tugamay ota-onasidan ham judo bo'ladi.

Cho'lpon Zebi boshidan kechgan xushnud daqiqalar bilan dahshatli kunlarni tasvirlash va ularni tarozi pallasiga qo'yishga bizni undash bilan u yashagan dunyoni,u yashagan davrning g'ayriinsoniy mohiyatini shafqatsiz ravishda ochib tashlaydi.Shu tarzda bizni romanda faol harakat qilmagan,balki voqealar oqimida suzib borgan qahramonning fojeali qismati haqida o'ylashga majbur etadi.Har bir inson o'z baxti uchun kurasha bilishi zarur.baxt uchun insonlik haq-huquqlari uchun kurashish har bir insonning insoniy belgilaridan birini tashkil etishi lozim.

Cho'lpon Zebi obrazi orqali shu fikrni olg'a surmoqchi bo'lgan.

Romandagi yana bir qahramon bu Razzoq so'fidir.Zebi boshiga balo toshlari otasi Razzoq so'fining mutaassibliigi,farzandi taqdiriga mutlaqo loqayd bo'lganligi sababli yog'iladi.Romanda berilgan ta'rifga ko'ra u "ko'rgazmada qo'yilaturg'on antiqa mahluqlardan" dir.Bu hol hatto uning ilk bor yo'rgaklangan paytda ham ma'lum bo'lgan.Uning hali odam kepatasiga kirmagan yuzlariga tikilib,enaga uni bunday so'zlar bilan erkalatgan ekan:

"- Aylanay mehmon,kimdan xafa bo'lib tushdingiz?kim ozor berdi sizga?Ayting:Qovog'ingizni ochsangizchi!Yorug' dunyoga keldingiz!Shukur qiling!Sevining!Mundoq bir kuling..."

O'sha paytda ham og'zini ochib,iljaymagan Razzoq So'fi hali hanuz kulish nimaligini bilmaydi.Har holda u uyida,xotini va farzandi oldida tishining oqini ko'rsatmagan.

Zolim otaning ko'ngli faqat bir joyda – Eshon boboning xuzurida ochilgan.Uning ko'zi faqat Eshon boboni ko'radi,qulog'i faqat Eshon boboning so'zlarini eshitadi.Eshon bobo-uning birdan-bir piridir.Uning uchun Eshon bobodan bo'lak odam-odam emas.

Akbarali mingboshi birinchi bor Zebini so'rattirganda,Razzoq so'fi:"Umrida peshonasi sajda ko'rmagan odamga qiz beramanmi?" degan.Lekin mingboshi ikkinchi marta-bu safar ehson bobo orqali so'rattirganda so'fi uning betavfiq,buzuq yuradigan odam ekanligini ham bila turib yo'q deya olmadi.

Agar Cho'lpon bosh qahramonga Zebo ma'nosini anglatuvchi Zebi ismini bergan bo'lsa,uning onasini esa u Qurvonbibi deb atagan, ya'ni uning Razzoq so'fidek badfe'l

bir kimsaga o'zini-o'zi qurbon qilganligini ta'kidlamoqchi bo'lgan.Chindan ham Qurvonbibining butun hayoti erining qosh-qovog'i ostida kuyib kul bo'ldi.Uning bu dunyoda yashashidan umidi yolg'iz qizi,uning baxtli-saodatli turmushi edi.

Cho'lpon Zebi fojeasining asosiy sababchisi sifatida Razzoq so'fini qoralar ekan,uning ham diniy bid'at va fonatizmning qurboni ekanligini unutmaydi.

Romandagi qariyb barcha qahramonlar pastdan yuqoriga qarab,biri ikkinchisiga tobelashib,mutelashib boradi.Agar Zebining inon ixtiyori Razzoq so'fida bo'lsa,so'fining jilovi Eshon boboning qo'lida.Eshon bobo o'z navbatida Akbarali mingboshiga,mingboshi esa Noyib to'raga bo'ysunadi.

Asar Zebilar xonadonining fojeali yakuni bilan tugaydi.Taqvodor ota o'z eshonbobosiga isyon qilib,uni o'ldirish darajasigacha yetadi.Baxtsiz ona telba bo'lib qoladi.

Zebi taqdiri bilan bog'langan personajlardan biri O'lmasjon.U qizlarni qishloqqa olib borib kelgan aravakash,yosh yigit.Ikki yosh o'sha safardan buyon bir-birlarini unutilmaydi.Ikkalalari ham uzoq vaqt birt-birlarining hayoli bilan yashaydilar.

Romanda muhim o'rinni Miryoqub chizig'i tashkil etadi.Miryoqub-alohida bir tip,u g'oyat epchil,ishbilarmon u aralashmasa hech bir ish bitmaydi.Shuning uchun ham uni "Miryoqub epaqa" deyдилar.U Akbarali mingboshining o'ng qo'li.U ozgina muddatga yo'q bo'lsa tamom mingboshi nima qilarini bilmay qoladi.Asilda uning savodi ham haminqadar,bilimi ham unchalik zo'r emas,lekin ziyrak,jmurosa-madorona o'rniga qo'yadigan chinakam korchalon.Foydasini biladi.Tantiligi ham yo'q emas,endigina shakllanib kelayotgan yangi tipdagi mulkdor.Tabiatan ancha murakkab.Uning Mariya bilan uchrashuvi fikr qarashlariga ta'sir ko'rsatadi.Yo'ldan ozgan bu juvonga yordam berishga qaror qiladi.Uning hujjatlarini o'zgartirib,fohishaxonaning iflos muhitidan olib chiqib ketadi.Moskvadagi No'g'aylar machitida musulmonlikka o'tkazib,Bibimaryam Oysha qizi nomi bilan nikohlab qo'ydi.Miryoqub qarashlarida chinakam inqilob yasagan voqea uning poyezdda Sharafiddin Xo'jayev degan kishi bilan uchrashuvi bo'ldi.Sharafiddin Xo'jayev Finlandiyaga borayotgan Toshkentlik savdogar,o'zini jadid deydi.Boy-badavlat dunyo ko'rgan ko'p narsadan xabardor til biladi,avlod tarbiyasi haqida gapiradi,millat deydi.Ilgari Miryoqub jadidlar haqida boshqacha fikrda edi,ularni

“kofirning ashaddiysi” deb o’ylardi.To’g’rirog’i unga shunday tushuntirgan edilar.Bu tamom boshqa.Aytib o’tilganidek Miryoqub-nihoyatda murakkab obraz.Uni yorqin salbiy qahramonlar guruhiga ham,Zebi yanglig’ ijobiy qahramonlar sirasiga ham kiritish qiyin.U ezgulik bilan tubanlik o’rtasida harakat qiladi.Agar u “Moviy ko’zli dilbar”ni,keyinchalik esa jadidni uchratmaganida,ehtimol,Akbarali va noyib to’ralarning “dumi” bo’lib yura berardi.

Cho’lpon o’zining “Kecha va Kunduz” romanida qahramonning hayotida gohi-gohida qaytalanib,takrorlanib turadigan azoblanish,uyalish,hayajonlanish kabi tuyg’ularni ham gavdalantiruvchi ichki monologlardan foydalanadi.Asarda bir xalqning ilgarigi hayotidan tarixiy asarlar yozib,xat shaklidan keng qo’llanish yoki barcha qahramonlarga bog’liq teng,bir xilda foydalanish mumkin emas.

Ammo boshqa xalqlarning turmushidan,hayotidan tarixiy asarlar yozganda bu usul o’tgan davrga bog’liq barcha qahramonlarning yozgan xatlari shaklida qo’llanaverishi mumkin,sababi,bu shu xalqlarning savodi,bilim darajasi,umuman olganda tarixiy haqiqatga to’g’ri keladi.Yevropa adabiyotidagi sentimentalistlardan boshlandi desak xato qilmaymiz.

Xullas,Cho’lpon romanda o’zbek xalqining mustamlakachilik davridagi jojiali hayotidan kichik bir lavhani qalamga olib,kechagi tarixiy o’tmishning haqqoniy manzarasini yaratishga erishdi.Zebilar,Qurvonbibilar,hatto Razzoq so’filar fojiasining ildizini tagtomiri bilan ochib tashladi.Ana shu “kecha”dan-tundan iborat hayotni o’zgartirish uchun nafaqat Akbaralilar,noyib to’ralar,hokim to’ralarni ag’darib tashlash,balki mamlakatni oqilona va odilona idora eta oluvchi bilimdon va fidoyi kishilarning yetishib chiqishi lozimligini ham ko’rsatib berdi.Roman qahramonlarining nafaqat sajiyasi,balki portreti ham keskin farq qiladi;asarda bir-biriga o’xshash birorta qahramon yo’q,ya’ni Cho’lpon har bir obrazni o’zgacha ohangda yaratadi.

Cho’lpon “Kecha va kunduz” romanida o’zbek xalqi tarixining muhim bir davrini keng epik ko’lamda tasvirlab berdi.

Mavjud ijtimoiy tuzumni o’zgartirish,mustamlakachilikni parchalash lozimligi haqidagi fikr Cho’lpon ijodining leymotivi sifatida bu romanda katta badiiy kuch bilan ifodalanadi.

Cho'lponning dramatik asarlarida obrazlar

Cho'lponning dramaturgiya sohasidagi ilk asarlari 20 - yillar arafasida maydonga kelgan bo'lsa-da, ular, shuningdek, 1920-yilda yozilgan "Yorqinoy" dramasi ham kichik sahna asarlari edi. Shuning uchun ham Moskvadagi o'zbek drama studiyasida sahnalashtirish uchun mahalliy mavzudagi asarlarga ehtiyoj tug'ilganida Cho'lpon mazkur pyesani qayta ishlab, uni 1926-yilda kitob shaklida nashr etdi.

Pyesaga Cho'lponning bag'ishlov so'zlari ilova etilgan: "Totli va boy tili bilan ertak aytib berib, shu asarning yozilishiga sabab bo'lgan KAMPIR ONA ga hurmat bilan bag'ishlayman". Bu so'zlardan ma'lum bo'lishicha, "Yorqinoy" pyesasi zaminida Cho'lponning "kampir onasi" dan eshitgan xalq ertagi yotadi. Ayrim manbalarda esa "Yorqinoy" pyesasida Andijondagi Po'latxon qo'zg'oloni bilan bog'liq voqealar aks ettirilgan degan fikr ham mavjud. Bizningcha ham, Cho'lpon yoshligida "kampir onasi" dan Po'latxon qo'zg'oloni haqida ertaknamo voqeani eshitgan va mazkur asarni yaratishda shu ertak voqeadan foydalangan bo'lishi mumkin.

Asarning markazida Yorqinoy obrazi turadi. U xonning sarkardasi O'lmas botirning yakkayu-yagona qizi. O'lmas botir qizini o'g'ilday tarbiya qilgan, yoshlikdan qilichbozlik hunarini o'rgatgan. Qiz otasining bog'boni Po'latni sevadi, Po'latning ham unda ko'ngli bor. O'lmas botir esa qizini xonning o'g'liga bermoqchi bo'ladi. Bu borada Nishabsoy hokimi ham odam qo'ygan.

Muallif asar voqealarida ijtimoiy oq-qora bo'yoq beradi. Masalaga shu davrda shitob bilan adabiyotga ham kirib kelayotgan faqirparvarlik maslagidan yondoshadi. Chunonchi, qizning otasi bilan Po'lat o'rtasida o'tib bo'lmas choh bor. Po'latning barcha qarindoshlari xon va uning sarkardasi O'lmas botir tomonidan o'ldirilib, o'zi xizmatkorlikka olingan. Xonlik saltanati bilan xalq o'rtasidagi nizo avjida. Po'lat xalq ishonchini Yorqinoy muhabbatidan ustun qo'yib ular bilan tog'larga chiqib ketadi va O'lmas botir qo'shiniga qarshi urushga kiradi. Urush orqasidagi voqealar ham shiddatli kechadi. Nishabsoy hokimi vaziyatdan foydalanib makr-hiyla bilan Po'latning nomini o'rtaga qo'yib qizini qo'lga tushiradi. Yorqinoy tadbirkorlik bilan Nishabsoy hokimi qo'lidan o'zini qutqaradi. Bugina emas, xalq bilan xon orasidagi urushni yarashga aylantiradi. Po'lat xon ko'tariladi, adolat qaror topadi.

O'lmas botir va unga o'xshash kimsalar uchun haq ikki xil bo'lgan: o'zlari uchun va o'zgalar uchun. O'zlari uchun mavjud bo'lgan haq uni o'zining yolg'iz qizini jazolashga imkon bermaydi. Lekin o'zgalar uchun haq tushunchasi uni shu lahzaning o'zida Po'latni qatl etish uchun yo'l ochadi: "Ammo, -davom etadi u Po'latni ko'rsatib, -mana bu ko'rnamakning qoni to'kilsa, also nohaqlik bo'lmaydir!" Ana shunday e'tiqod bilan yashagan O'lmas botirning halol inson emas, balki zolim va qonxo'r sarkarda ekanligi ma'lum bo'ladi. U bilan ilik bor to'qnashgan va yuzma-yuz olishishga majbur bo'lgan Po'lat o'zining va otasining kim ekanligini undan so'rab bilmoqchi, o'z ajdodlarining taqdiri to'g'risida xabar topmoqchi bo'ladi. Lekin kutilmaganda bu narsa O'lmas botirning eng dahshatli siri ekanligi oshkor bo'lib qoladi.

Cho'lpon pyesaning bu muhim dramatik nuqtalaridan birini bunday tasvirlaydi:

"Po'lat (qaltirab). Botir, pardani ochish zamoni kelganga o'xshaydir. (Ko'zguga qarab olib.) Mening otam kim?

Botir (bir qurshashib rangi o'chib oladir, so'ngra o'zini to'xtatib olib, bemalol.) Otang-bir qishloqi!

Po'lat. Qani o'sha qishloqi? Nimaga men sizning dargohingizda, sizning non-tuzingizga qarab qolganman?

Botir. O'zini boqolmagan bir qishloqi seni biti bilan boqsinmi? O'zi boqolmagandan keyin menga berib ketganda!

Po'lat bilan O'lmas botir oralarida bo'lib o'tgan ana shu dialog pyesada g'oyat muhim ahamiyatga ega. Bu sahnada ishtirok etgan Yorqinoy Po'latning shu so'zlarini tinglar ekan, otasining qanday inson ekanligini kashf etadi. Garchand "hunari go'rkovnikidan yomon" bo'lgan ana shu otaning farzandi bo'lganiga qaramay, undan voz kechib, Po'lat ortidan ketish va hatto otasiga qarshi Po'lat tarafida turib jang qilishdan toymaydi.

Xo'sh, bu hol ma'naviyat mezonlariga to'g'ri keladimi? Otaga qarshi jang qilish-qanday maqsad yo'lida bo'lmasin-oqpadarlik emasmi?

Agar biz Cho'lpon ijodi va ijtimoiy faoliyatining negiz-negiziga nazar tashlasak, uning uchun faqat sajdagoh bor ekanligini ko'rajmiz. Bu xalqdir. Xalq qayerda bo'lsa, haq ham o'sha yerda bo'ladi. Shuning uchun ham Cho'lpon otasi orzu qilgan mudarrislik kasbini tanlamay, o'zini xalq baxt-saodati yo'lida mashaqqat va azoblar bilan to'la kurashga

bag'ishlangan edi.Yorqinoyning ham "hunari go'rkovnikidan ham yomon" otasidan voz kechib,Po'lat sarkardasi bo'lgan xalq bag'riga otilishida Cho'lpon tushungan hayot ma'nosi yotadi.Yana pyesaga qaytaylik:

"Yorqinoy (qaltirab).Ota,ota deyman!Bu nima gap?Bu nima?Qanday gap?((Botir jim.)Po'lat,sen aytib ber,bu nima gap?Men o'laman.Men chiday olmayman.Bu qanday sir?

Po'lat (o'zini bosib olib,bo'shashibroq).Bu sirlarning tagini otangizdan so'rang,ularning shirin gaplarini eshitmang,o'zlarini ko'rish o'rniga bir xalta chirigan suyaklariga ega bo'lgan kishi o'sh asuyaklarni chiritgan dargohda tura olmaydi.Men shu to'rt og'iz gapni sizga aytib qo'yib,shu dargohdan butkul bosh olib ketmoqchi edim...Oyim poshsho,menga non-tuz berdi,deb otangizdan halollik so'ramayman.Nimaga desangiz,har bir tishlagan nonim-ota-oanamning bir burda eti,har bir qatra tatigan tuzim-ularning ko'z yoshlari,balki qonlari bilan to'lgan ekan".

Bu shekspirona ulkan mahorat bilan yozilgan monologdan O'lmas botir qarorgohida yuz bergan fojia sirlari ochiladi.

Bu dramatik lavhada yana ikki diqqatga sazovor nuqta bor,Birinchisi shuki,Olmas botir xonadonida Qumri ismli cho'ri bor bo'lib,u ham Po'latni sevadi.Sevibgina qolmay,Po'latning Yorqinoyga nisbatan tuygan sevgisi ijtimoiy tengsizlik hukm surgan davrda baxtli yechim bilan tugashiga ishonmaydi va o'z sevgisi uchun kurashmoqchi bo'ladi.Lekin Po'lat Yorqinoy bilan oila qurishiga ishonmasa ham,uning muhabbatini rad etmaydi.U muhabbatda ham,hayotning boshqa jabhalarida ham qul bo'lib qolishga rozi emas.U o'z hayotining ma'nosini yuksak g'oyalar uchun kurashda ko'radi.Po'lat obrazining qimmatini belgilovchi fazilatlar avvalo shundadir.

Ikkinchi nuqta shundaki,Cho'lpon asarda toj-taxt mavzusini ko'tarar ekan,o'zi sezmagan holda siyosiy va ijtimoiy xudbinlik oddiy xalq uchun fojialar keltirishi mumkinligini ytasvirlab,1937-yil dahshatlarini bashorat qilgandek bo'ladi.

Cho'lponning butun hayoti,ijodi va ijtimoiy faoliyati faqat bir narsaga-o'z xalqining hur va ozod,mamlakatining esa mustaqil bo'lishiga to'la-to'kis bag'ishlangan ediki,xalq ham uning asarlarini sevib o'qishi,bu asarlarda o'z ifodasini topgan ma'naviy qadriyatlarni saqlashi va jahon madaniyati darajasiga ko'tarishi lozim.

Xulosa

Mana biz XX asr o'zbek adabiyoti taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan talantli yozuvchi,shoir,otashin publitsist,dramaturg va adabiyotshunos Abdulhamid Cho'lponning obraz yaratish mahoratiga oid kuzatishlarimizni ko'rib chiqdik. Yuqorida qayd qilganimizdek,Cho'lpon nihoyatda serqirra ijodkor.

Cho'lpon ijodi-olmos yanglig serqirra.Adabiy ijodini kichik-kichik maqola va hikoyalar bilan boshlagan Cho'lpon keyinchalik o'zbek she'riyatining yuksak cho'qqilaridan biriga aylandi.Uning ezgu insoniy tuyg'ular porlab turgan she'rlari 20-yillarda Oybek,G'afur G'ulom,Hamid Olimjon,Mirtemir,Usmon Nosir singari shoirlarning tug'ilishida "adabiy beshik" vazifasini o'tadi.Shu bilan birga Cho'lpon nasr va dramaturgiyada,tarjima san'ati va adabiyotshunoslikda ham o'chmas iz qoldirdi.U haqli ravishda XX asr o'zbek adabiyotining eng yorqin siymolaridan sanaladi.

Uning lirik asarlari,nasriy asarlari va dramatik asarlarida obraz yaratish mahorati bir-biriga o'xshamagan,bir-birini takrorlamaydigan jihatlarga,xususiyatlarga ega.Uning lirikasini olib qaraydigan bo'lsak,Cho'lpon o'z she'rlaridagi badiiy g'oyaga mos ravbishda,g'oya va mazmun toqozosi bilan zamonasining ijtimoiy-maishiy va siyosiy muammolariga befarq qaray olmaydigan faol insonni qahramon sifatida tanlaydi.Cho'lpon butun umri davomida xalq erki va ozodligi uchun kurashadi.Kurashlari samara beravermagach,uning milliy istiqlol-Vatan va xalqni ozod ko'rish maqsadi yurak tubidagi orzusiga aylandi.Cho'lponning lirik qahramoni mana shu orzu va istakdan biror daqiqa mosuvo bo'la olmadi.Hatto 30-yillardagi,ya'ni sotsiolistik tuzum to'la g'alaba qozongach ham,yangi tuzumga hayrixox emasligini turli usul va vositalar bilan izhor qildi.Cho'lpon lirik qahramoni obrazini ta'sirchan va haqqoniy chiqarish uchun turli tasviriyy vositalardan,ba'zi o'rinlarda mumtoz adabiyotimizda yillar davomida sinovdan o'tgan an'analardan ustalik bilan foydalandi.Natijada mulohazakor,davr bilan nafas oladigan,haqiqiy vatanparvar obrazini yaratadi lirik qahramonning his-tuyg'ulari,orzu-o'ylari kitobxonga ham "yuqib",unda ham xalqparvarlik va millatparvarlik hissiyotini tarbiyalaydi.

Cho'lpon yangi xarakterdagi o'zbek nasrining shakllanishi va takomillashuviga ham katta hissa qo'shgan adiblardan.

U zamonasining g'oyat dolzarb masalalariga bag'ishlangan serma'no, ixcham hikoyalar muallifidir. Cho'lpon she'riyat va dramaturgiyada el og'ziga tushgan asarlari bilan cheklanmay, katta prozada – romanda ham o'z qalamini sinab ko'rdi. Ikki qismdan iborat "Kecha va kunduz" asarini yozishga jazm etdi. Ko'pchilik e'tirof etishlaricha romanning birinchi kitobi "kecha", ya'ni o'tmishga bag'ishlangan qismi yozilib, ikkinchi qismini yozishga muallif ulgurmagan yoki ikkinchi qismi yo'qolgan. Cho'lponning prozaik asarladida qahramon xarakterini yaratish masalalarini mana shu birinchi qism asosida o'rganishga harakat qildim. Cho'lpon o'z salaflari va zamondosh yozuvchilaridan badiiy prozaning, ushbu tur asarlarda xarakter yaratishning sirlarini juda yaxshi o'rgangan va o'z ijodiga tadbiq qila bilgan. Bunga romanning asosiy qahramonlari bo'lmish Zebi, Miryoqub, Akbarali va Razzoq so'fi kabi obrazlarning g'oyat ta'sirchan va tabiiy chiqqan xarakterlari misol bo'la oladi.

Cho'lponning romandagi xarakter yaratish usullari, obrazni tipiklashtirish borasidagi sa'y-harakatlari yuqorida keltirganlarimizda o'z ifodasini topgan.

Sira ikkilanmay aytish mumkinki, Cho'lponning butun ijodi 20- 30-yillarda adabiyotimizga kirib kelgan, keyinchalik XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakillariga aylangan Oybek, G'.G'ulom, Uyg'un, Mirtemir, Usmon Nosir singari iste'dod egalari uchun ma'lum ma'noda ijodiy maktab vazifasini o'tadi.

Ta'kidlash kerakki, bugungi kun shoir va yozuvchilari ham o'zlarini Cho'lponning izdosh vorislari sanashadilar. Chunki o'zbek adabiyotining yangi, realistic yo'nalishga chiqib, takomillashuv jarayonida A.Qodiriydek Cho'lponning ham nufuzli o'rni va roli mavjud.

Cho'lpon bir umr orzu qilgan mustaqil O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarori bilan 1991-yilda buyuk bobomiz Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston respublikasi Davlat Mukofoti bilan taqdirlandi. Bu o'zining erksevar farzandiga bo'lgan xalqning so'nmas muhabbatining ramzidir. Bugungi kunda Cho'lpon ijodini yosh avlod zo'r ishtiyoq bilan o'rganmoqda, uning adabiy me'rosi avlodlar qalbini doimiy ravishda jilolantirib turadi va qalbiga so'nmas ziyo bag'sh etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.G'.K.Karimov "O'zbek adabiyoti tarixi" 3-kitob,Toshkent "O'qituvchi"1987 yil.
- 3."Ma'naviyat yulduzlari".Abdulla Qodiriy nomidagi xalq me'rosi nashriyoti.Toshkent 2001 yil
- 4.Begali Qosimov,Sharif Yusupov,Ulug'bek Dolimov,SHuhrat Rizayev,Sunnat Ahmedov."Milliy uyg'nish davri o'zbek adabiyoti" Toshkent "Ma'naviyat"2004 yil.
- 5.N.Karimov,B.Nazarov,U.Normatov,Q.Yo'ldoshev "Adabiyot" darslik majmua.Toshkent "O'qituvchi" 2004 yil.
- 6.Muqimiy. Saylanma,Toshkent "Ma'naviyat" 2009 yil.
- 7.Internet ma'lumotlari [www."Ziyonet".uz](http://www.Ziyonet.uz) saytidan olindi.